SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 7 - iyul 124-9-131-Q/23 Shirin shahar hokimligi

Shirin shahar markaziy hududidan kesib o‘tuvchi umumfoydalanuvda bo‘lgan avtomobil yo‘llariga yo‘l harakati qoidalarining 3.20. “Quvib o‘tish taqiqlangan” taqiqlovchi yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida

Shirin shahar hududida transport vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘l transport hodisalarining oldini olish transport vositalarining harakatlanishini tartibga solish borasida shahar hududidan o‘tuvchi yo‘llarning ayrim joylariga zaruriy yo‘l belgilarini o‘rnatish maqsadida, ushbu orqali yo‘l harakatini tartibga solish hamda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-son “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, 2013-yil 10-apreldagi O‘RQ—348-sonli “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati” to‘g‘risidagi qarorining 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Shirin shahar Ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligining 2023-yil 5-iyun kungi 27-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Shahar yo‘nalishida bo‘lgan avtomobil yo‘llarining 4K-660 “Shirin shahri” avtomobil yo‘lining Xalqlar Do‘stligi ko‘chasining 25-26-kilometr oralig‘iga yo‘l harakati qoidalarining 3.20. “Quvib o‘tish taqiqlangan” Taqiqlovchi yo‘l belgisi o‘rnatilsin (3.20. “Quvib o‘tish taqiqlangan”. Soatiga 40 km dan kam

tezlikda harakatlanayotgan yakka transport vositasidan boshqa transport vositalarini quvib o‘tish taqiqlanishini bildiradi.).

3. Shirin shahar Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi guruhi rahbari (G‘. Xolmatov), Boyovut tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori (R. Abduvoxidov), shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (J.Turdimurodov)larga:

vakolatlari doirasida kelishuv asosida yo‘l belgilarini me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan ko‘rinishda, balandlikda o‘rnatilishini ta’minlash;

yo‘llarni saqlash va ularni yo‘l belgilari, axborot ko‘rsatkichlari, yo‘l harakatini tartibga solishning boshqa vositalari bilan jihozlash bo‘yicha o‘rnatilgan talablarga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

4. Shahar hokimligi Axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi (K.Azimjonov), “Shirin sadosi” gazetasi bosh muharriri (O.Ashurqulov) ushbu qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda ushbu qaror matnini “Shirin sadosi” gazetasida chop etish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilgan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini ta’minlash va nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosari Z. Abduvoxidov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **S.Sultonov**